Halqimizning ma'naviy qadriyatlariga xurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urf-odatlarimizni, tarixiy, ilmiy-madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbek milliy akademik drama teatri, estrada musiqasini rivojlantirish to'g'risidagi va boshqa bir qancha qaror va farmonlarning qabul qilinishi, bir qancha mutafakkir va allomalarimizning muqaddas nomlari tiklanib, yubileylari xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgani davlatimiz tomonidan madaniyatni rivojlantirishga ko'rsatilayotgan g'amho'rlikning amaliy ifodasidir.

Nazorat savollari

1. Madaniy-ma'rifiy ishlar haqida ma'lumot bering.
2. Madaniy-ma'rifiy ishlarning jamiyatdagi o'rni qanday?
3. Madaniy-ma'rifiy ishlar negizida nimalar yotadi?
4. Madaniy-ma'rifiy ishlarda nimalar aks ettiriladi?
5. Madaniy-ma'rifiy ishlarning afzallik tomonlari.
6. Madaniy-ma'rifiy ishlarni kimlar tomonidan uyushtiriladi?
7. Madaniy-ma'rifiy ishlarni kishilarning bo`shvaqtiga ta`siri qanday?
8. Madaniy-ma'rifiy ishlarning faoliyat doirasi haqida ma'lumot.

Tayanch iboralar

1. Badiiy ommaviy tadbirlar
2. Badiiy ommaviy tadbirlarinng afzallik tomoni
3. Badiiy ommaviy tadbirlarni uyushtirish
4. Badiiy ommaviy tadbirlarni turlari
5. Badiiy ommaviy tadbirlari mavzusi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida». Toshkent, 1998.
3. SHorahmedov D.A. «Madaniyat va meros». Toshkent, 1973.
4. Qoraboev U. «Madaniy tadbirlar». Toshkent, 2003.

4-mavzu: Madaniyat sohasini boshqaruvchi davlat organlari.

Reja

1. Madaniy-ma'rifiy faoliyat
2. Madaniy-ma'rifiy ishlar komplekslari haqida tushuncha
3. Madaniy-ma'rifiy muassasalarni hozirgi kunimizdagi ishlari.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar – bu ideologik va tarbiyaviy ishlar sistemasining asosiy zvenolaridan biri bo'lib, ular xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida kishilarning bo`shvaqtini mazmunli tashkil qilishda muhim rol o`ynaydi. Ular shaxsni har tomonlama rivojlanishi va aktivligini oshirish jarayoni o`ziga xos vazifalari, ya`ni uzluksiz ta`lim-tarbiya berish, havaskorlik ijodiga jalb qili shva mazmunli dam olish, hordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boriladi.

Madaniy-ma'rifiy komplekslar eng avvalo – klub, park, muzey, kutubxona hamda boshqa madaniy muassasalardir. Bunday ishlar bilan yana boshqa ijtimoiy muassasa va tashkilotlar hm shug`ullanadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar – bu ideologik va tarbiyaviy ishlar sistemasining asosiy zvenolaridan biri bo'lib, ular xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida mehnatkashlarning bo`shvaqtini mazmunli tashkil qilishda muhim rol o`ynaydi. Ular shaxsning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy aktivligini oshirish jarayoni o`ziga xos vazifalar, ya`ni uzluksiz ta`lim-tarbiya borishi, havaskorlik ijodiga jalb qili shva mazmunli dam olish, hordiq chiqarish uyushtirish oraqli olib boriladi.

Mustaqillikdan so`ng madaniy-ma`rifiy ishlarga nihoyatda katta ahamiyat berilla boshlandi. Xalqning tashabbuskorligini, havaskorli ijodiy o`stiruvchi va uning madaniy dam olishni tashkil etuvchi ommaviy tadbirlarni uyushtirishda madaniy-ma`rifiy muassasalar, jumladan klublar o`ziga xos ijtimoiy-madaniy markaz hisoblanib, ularga katta e`tibor qaratilib, zamonaviy holda ta`mirlanib, jihozlanmoqda.

Madaniy-ma`rifiy faoliyat bilan barcha davlat muassasalari, ko`ngilli jamiyatlar, ommaviy axborot vositalari, san`at muassasalari, o`quv yurtlari, sana`at korxonalari va boshqa ko`plab tashkilotlar o`z ishining bir bo`lagi sifatida shug`ullanib kelmoqdalar. Demak, madaniy-ma`rifiy ishlar barcha kollektivlar hayotida madaniy-tarbiyaviy ish sifatida muhim rol o`ynaydi.

Madaniy-ma`rifiy faoliyat ko`p qirrali ijtimoiy-madaniy jarayon bo`lganligi sababli, u hayotda deyarli barcha sohalar bilan bog`liq.

Nazariy savollar

1. O`zbekistonda madaniy ishlarni boshqarish qanday olib borilmoqda?
2. O`zbekistonda madaniy-ma`rifiy muassasalarga qanday e`tibor berilmoqda?
3. Madaniy-ma`rifiy ishlar qahida tushuncha bering.
4. O`zbekistonda madaniy-ma`rifiy ishlari kim tomonidan olib borilmoqda?
5. Madaniy-ma`rifiy komplekslar haqida ma`lumot bering.
6. Madaniy muassasalarda tarbiya ishlari qanday olib borilmoqda?
7. Madaniy-ma`rifiy tadbirlar tayyorlash ishlari haqida.
8. Madaniy ishlarni qaysi vazirlik tomonidan olib boriladi?

Tayanch iboralar

1. O`zbekistonda madaniy-ma`rifiy ishlarni borishi
2. Madaniy muassasalar
3. Madaniy-ma`rifiy ishlarga e`tibor
4. Madaniy-ma`rifiy muassasalar faoliyati
5. Madaniy-ma`rifiy muassasalarda tarbiya
6. Madaniy-ma`rifiy muassasalar

7. Madaniy-ma`rifiy muassasalarni boshqarish ishlari
8. Madaniy-ma`rifiy muassasalarda bo`sh vaqtni rejalashtirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. «Ma`naviy yuksalish yo`lida». Toshkent, 1998.
3. SHorahmedov D.A. «Madaniyat va meros». Toshkent, 1973.
4. Qoraboev U. «Madaniy tadbirlar». Toshkent, 2003.

5-mavzu: Madaniy muassasalarni tartibga soluvchi me`yoriy xujjatlar.

Reja

1. Madaniy muassasalarni qishloqlarda ahloq-odob, diyonat, insonparvarli ruhida tarbiyalashga qo`shgan xissasi.
2. Madaniy muassasalar tomonidan kishilarni halollik, mehnat, milliy iftihar tuyg`ularini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni uyushtirish.
3. Madaniy muassasalar tomonidan kishilarni milliy iftihar rivojlanishiga qaratilgan tadbirlar jadb qilish.

Madaniy muassasalarda kishilarni ahloq-odob, diyonat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda, o`z vataniga bo`lgan mehr-muxabbatini oshirish, o`z halqiga, o`z ona yurtiganisbatan fahr xissini uyg`otish, qisqa qilib aytganda yosh avlodga ahloqni shakllantirishga har tomonlama oshirish uchun bir qancha tadbir va kechalar o`tkaziloqda. Bunday tadbirlarni ko`pi huquqiy masalada bo`lib, kishilarni huquqiy ongini oshirish, ularning ongida insonparvarli, mehr-shavqat, halollik kabi yaxshi omillarni shakllantirish mumkin. mehnat kishilarni taraqqiyotining asosiy zaminidir. Insoniyat erishgan barcha yutuqlar bu mehnat tufaylidir. Kishilar o`zi bajargan mehnatni samarasidan bahramand bo`la olsa, mehnati jamiyat manfaati uchun zarracha foyda Bera olishini his qilsa, o`z-o`zidan ravshanki, unda mehnati bilan g`ururlanish, fahrilanish tuyg`usi vujuga keladi. Buning uchun esa madaniy-ma`rifiy muassasalar tomonidan bir tadbirlar olib breililib mehnat faxriylarini eng faol ishchi

va xizmatchilarini taklif qilinib omma orasida ularni taqdirlanadi vash u orqali boshqa ishchilarga ham namuna qilinadi. Bundan tashqarii bir qator kabi bayramlarida ham shunday tadbirlar o`tkaziladi.

Madaniy-ma`rifiy muassasalarda, klublar, parklar, mehnat bayrmlarini tashkil qiluvchi asosiy zvenolardiro. Klub, parklar madaniy-ma`rifiy muassasalarning eng yirik va murakkab shakllaridan biridir. O`zbek halqida mehnat bayramlari nihoyatda ko`pdir. O`zbek mehnat bayramlari taraqqiyotining eng muhim tendentsiyalari ularni insoniylik va mehnatkashlik g`oyalarini rivojlantiruvchi kuchdir. Har bir kishi o`z mehnatidan bahra olsa, ya`ni mehnat bayramlarida uni mehnati qadrlansa va uni o`rinli tarzda mukofotlansa, bundan keyingi ishlarida baraka va o`ziga xos kuch paydo bo`ladi. shuni muhim deb bilgan madaniy muassasalar ham o`ziga xos bayramlarni uyushtirishadi.

Mehnati kishilarning ongini rivojlantirishda, o`z ehtiyojlarini qondirishda eng muhim narsadir. Insoniyat erishgan barcha yutuqlar mehnat tufaylidir. Madaniy muassasalarda vatanparvarlikka chorlovchi bir qancha tadbirlar o`tkaziladi. Bunday tadbirlarda urush veteranlari, armiyada xizmatqilayotgan Askar va ofitserlar, xarbiy xizmatga chaqirilayotgan yoshlar bilantantanali ravishda o`tkaziladigan uchrashuvlarga bag`ishlangan bo`ladi.

Vatanparvarlik mavzusiga oid bo`lgan madaniy muassasalar kechalarida xukumatimizning tinchlik siyosati, xalqimizning himoyachisi bo`lgan o`zbek armiyasi, unda xizmat qilayotgan askarlari, uning xarbiy tayyorgarligi, hozirgi kundagi xarbiy texnika va armiya hayoti haqida hikoya qilinadi.

Kishilarda haqiqiy vatanparvarlik ruhini tarbiyalash uchun bunday kechalarning ahamiyati juda katta.

Muassasalarda mavjuda bo`ladigan me`yoriy xujjatlari ro`yxati quyidagilar iborat:

1. Davlat qarorlari, Prezidentimiz farmonlari, tuman, shahar, viloyat xokimlari qarorlari.
2. Klub muassasasining pasporti, nizomi.
3. Olik, yillik ish rejasi.
4. Kundalik va to`garak ishlari daftari.

5. Fikr-mulohaza daftari.
6. Klub muassasasi kengashi haqida ma'lumot.
7. Tadbirlar rejasi, stsenariy va dasturlari.
8. To'garaklar rejasi va mashg'ulot jadvali.
9. YUqori tashkilotlardan kelgan xatlar, ko'rsatilayotgan amaliy hamda uslubiy yordamlarni hisobga olish daftari.
10. Klub xodimlarini ish taqsimoti.
11. Xarajatlar smetasi.
12. Raqamli va yozma hisobotlar.
13. Navro'z va mustaqillik bayramlari to'g'risidagi xujjatlari.

Klub muassasalarida o'tkaziladigan har bir tadbir bayonlashtiriladi. Bayon mas'ul shaxslar tomonidan imzolanadi. Bayonning asosiy zaruriy qismlari:

1. Muassasaning nomi.
2. Sarlavha
3. Xujjatning nomi (bayon)
4. O'tkazilgan tadbir sanasi
5. SHartli raqam
6. Tadbir joyi
7. Tasdiqlash ustxati
8. Tadbir uchun ma'sul shaxs va kotibning familiyasi.
9. Matn
10. So'zga chiqdi (xulosalar)
11. Ilovalar
12. Qaror
13. Imzolar

Bayon tuzishda ularning huquqiy jihatdan to'laqlonligini ta'minlash kerak.

Nazorat savollari

1. Madaniy muassasalar haqida tushuncha bering.
2. Mehnat tarbiyasi nima?
3. Kishilarni mehnatkashlikka o'rgatish uchun nimalar qilish lozim?

4. Mehnat bayramlari haqida tushuncha bering.
5. Madaniy muassasalarni halol mehnat qilishdagi o`rni haqida tushuncha bering.
6. Madaniy muassasalarni komil inson tarbiyalashdagi o`rni qanday?
7. Madaniy muassasalar mehnat tarbiyasi haqidagi tadbirlari haqida nimalarni bilasiz?
8. Eng yaxshi ishchi unvoni haqida tushuncha bering.

Tayanch iboralar

1. Madaniy muassasalar
2. Mehnat tarbiyasi
3. Kishilarni mehnatkashlikka o`rgatish
4. Halol mehnat qilishdagi o`rni.
5. mehnatkashlarni dam olishini tashkil qilish
6. Mehnat bayramlarini uyushtirish.
7. Eng faol ishchi unvoni
8. Komil insonni tarbiyalash

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. «Ma`naviy yuksalish yo`lida». Toshkent, 1998.
3. SHorahmedov D.A. «Madaniyat va meros». Toshkent, 1973.
4. Qoraboev U. «Madaniy tadbirlar». Toshkent, 2003

6-mavzu: Madaniy muassasalarda moddiy-texnik ta`minoti.

Reja

1. Madaniy muassasalarda rejalashtirish ishlari
2. Madaniy muassasalarda mablag` ajratish
3. Madaniy muassasalarning xo`jalik faoliyati
4. Resurslarni hosil qilish va foydalanish

Klub o'zining ijodiy ishlab chiqarish, moliya-xo'jalik faoliyati va jamoaning ijtimoiy rivojlanish besh yillik va yillik rejalarini mustaqil ravishda ishlab chiqadi va uni mehnat jamoasi tasdiqlaydi.

Klubning ijodiy ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish faoliyati aholi, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning ijtimoiy buyurtmalari, jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, kooperativlar bilan tuzilgan maqsadli madaniy dasturlar va rejalar asosida amalga oshiriladi.

Maqsadli madaniy dasturda tadbirning maqsadi, aniq ish shakllari va usullari, uni o'tkazish uchun lozim bo'ladigan resurslar va xarajatlar ko'rsatiladi.

Maqsadli madaniy dasturlarni buyurtmachi tasdiqlaydi va barcha sarflarni buyurtmachi to'laydi. Besh yillik va yillik rejalarini tuzishda klub moliya-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy normativlari, yuqori organlar tomonidan berilgan nazorat raqamlari va limitlariga amal qilinadi.

Klubning mablag' manbalariga quyidagilar tashkil etadi:

- madaniyat va san'atni rivojlantirish fondidan (byudjetdan) ajratilgan mablag'lar;
- mehnat jamoalariga ko'rsatilgan xizmatlar uchun birlashmalar, korxonalar, tashkilotlar, jamoa xo'jaliklari, kooperativlar, jamoat tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq tushadigan mablag'lar;
- biletlar, ijodiy mahsulotlar va klub mablag'i hisobiga sotib olingan boshqa buyumlarni sotishdan va ularni foydalanishdan, shuningdek, aholiga pullik xizmat ko'rsatishdan tushadigan pullar;
- ortiqcha eskirgan va to'zigan asbob-uskunalar, jihozlarni sotishdan tushadigan pullar;
- fuqarolar, davlat, jamoa va kooperativ tashkilotlarning ixtiyoriy badallari;
- pullik kino ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;
- boshqa tushumlar.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish hamda xodimlar mehnatiga haq to'lashni mustaqil echish va ularning huquqlarini kengaytirish maqsadida mehnat jamoasi mehnatga haq to'lashning ikki usulidan birini qabul qilishi mumkin.

Daromadlarni taqsimlanishi 1-usulida har oydi:

- umumiy daromadning haqiqiy miqdoridan normativ bo'yicha ish haqi fondi ishlab chiqiladi;

- moddiy va ularga tenglashtirilgan harakatlar qoplanadi;

- boshqa tashkilotlar bilan hisob-kitob qilinadi;

- kreditlar uchun foizlar to'lanadi.

Ana shu hisob-kitobdan so'ng, qolgan qoldiq-daromad mehnat jamoasining ihtiyorida bo'ladi. undan belgilangan normativga ko'ra, ijodiy ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish fonli tuziladi. Qoldiq sifatida moddiy rag'batlantirish fondi hosil bo'ladi. Klub ish haqi fonli bilan rag'batlantirish fondini mehnatga haq to'lash yagona fondiga birlashtirish huquqiga ega.

Rag'batlantirish fondiga boshqa tashkilotlar va korxonalarning rag'batlantirish fondidan berilgan mablag'lar ham kiradi.

Daromadlarni taqsimlanishi 2 usulda har oyda:

- umumiy daromaddan moddiy xarajatlar qoplanadi;

- turli majburiy to'lovlar to'lanadi;

- boshqa tashkilotlar bilan hisob-kitob qilinadi;

- kreditlar uchun foizlar to'lanadi, so'ngra klubning xo'jalik hisobi daromadi hosil bo'ladi.

SHu daromad qoldig'idan belgilangan normativga ko'ra ijodiy ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish fondi tuziladi, qolgan mablag'dan mehnatga haq to'lash yagona fondi hosil bo'ladi.

Klub muassasasi:

- mehnatni tashkil etish haq to'lashning jamoa, oilaviy, brigada pudrati, shartnoma va boshqa progressiv shakllaridan foydalanadi;

- shtatlar jadvaliga xalq xo'jaligining boshqa soha mutaxassislari lavozimlarini kiritadi va lavozim maoshlar sxemasini, tayyor ishlangan narxlar va tariflarni qo'llanadi;

- turli xil xizmat ko'rsatish uchun aholi bilan shartnomalar tuzadi, haqni shartnomaning bajarilishiga qarab to'laydi.

Nazariy savollari

1. Madaniy muassasalarda rejalashtirish nima?
2. Madaniy muassasalarda mablag` ajratishga nimalar kiradi?
3. Madaniy muassasalarning xo`jalik faoliyati qanday bo`ladi?
4. Resurslarni hosil qilish va foydalanishda nimalaradn foydalaniladi?

Tayanch iboralar

1. Rejalashtirish
2. Mablag` ajratish
3. Xo`jalik faoliyati
4. Mehnatni tashkil qilish
5. Resurslarni hosil qilish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. «Ma`naviy yuksalish yo`lida». Toshkent, 1998.
3. SHorahmedov D.A. «Madaniyat va meros». Toshkent, 1973.
4. Qoraboev U. «Madaniy tadbirlar». Toshkent, 2003

7-mavzu: Madaniyat xodimlari mehnatining o`ziga xos xususiyatlari va ish haqini shakllantirish.

Reja

1. Mehnatni tashkil etish va haq to`lash
2. ishda yuksak ijodiy va ishlab chiqarish yutuqlarini taqdirlash.

Klub muassasasi:

- mehnatni tashkil etish va haq to`lashning jamoa, oilaviy, brigada pudrati, shartnoma va boshqa progressiv shakllaridan foydalanadi;
- shtatlar jadvaliga xalq xo`jaligining boshqa soha mutaxassislari lavozimlarini kiritadi va lavozim maoshlar sxemasini, tayyor ishlangan narxlar va tariflarni qo`llanadi;

- tadbirlarni tayyorlash uchun malakali mutaxassislarni jalb etadi va ularning xizmati uchun shartnoma bo'yicha haq to'laydi. SHartnomaning to'liq va sifatli bajarilishini shartnoma tuzgan buyurtmachi bilan birgalikda nazorat qilib boradi;

- turli xil xizmat ko'rsatish uchun aholi bilan shartnomalar tuzadi, haqni shartnomaning bajarilishiga qarab to'laydi.

Jamoa va davlat xo'jaliklari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar o'zaro tuzilgan shartnomalarga muvofiq bajarilgan ishlar hajmiga qarab klubning maxsus mablag'lar hisobiga pul o'tkazish yo'li bilan haq to'laydilar.

Rejalashtirilgan muddat davrida mehnatga haq to'lash yagona fondidan foydalanilmasdan qolgan pul yuqori roliya organlari tomonidan olib qo'yilmaydi va kelgusi yilga o'tkaziladi.

Ishda yuksak ijodiy va ishlab chiqarish yutuqlariga erishganligi uchun klub direktorii (mudir)ga qo'shimcha haq va mukofotlar miqdorini yuqori boshqaruv organi belgilaydi. Bunga xodimlarning (rahbarning ham) ish haqi miqdor bilan cheklanmaydi.

Direktor (mudir):

- umumiy majlis va kengash qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi;
- klubning mablag'lari va mulkini, ishlab chiqarish moliya faoliyatini rejalarda belgilangan doirada boshqaradi;
- xodimlarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi;
- davlat banklarida joriy va boshqa hisolar ochadi, davlat, jamoa organlari, korxonalar, tashkilotlar, kooperativlar bilan amalga oshiriladigan munosabatlarda klubning manfaatlarini himoya qiladi;
- turli shartnomalar tuzadi;
- ijodiy ishlab-chiqarish. Moliya faoliyatining pirovard natijasi uchun davlat va mehnat jamoasi oldida shaxsan javob beradi;
- tuzilma bo'limlari rahbarlarini tasdiqlaydi va vazifasidan bo'shatadi;
- klubning kundalik ishlariga rahbarlik qilishni amalga oshiradi;
- umumiy majlis vazifasiga kirmaydigan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Nazariy savollar

1. Mehnatni tashkil etish va haq to`lash nimalardan iborat?
2. Ishda yuksak ijodiy va ishlab chiqarish yutuqlarini taqdirlash deganda nimani tushunasiz?
3. Maqsadli madaniy dasturlar nima?
4. Mehnatni tashkil qili shva daq to`lash deganda nimani tushunasiz?

Tayanch iboralar

1. Mehnatni tashkil etish
2. Haq to`lash
3. Mukofot
4. Qo`shimcha haq to`lash
5. Xodimlar faoliyati
6. Ish haqi
7. Moddiy texnik ta`minot
8. Davlat ta`minoti

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. «Ma`naviy yuksalish yo`lida». Toshkent, 1998.
3. SHorahmedov D.A. «Madaniyat va meros». Toshkent, 1973.
4. Qoraboev U. «Madaniy tadbirlar». Toshkent, 2003

8-mavzu: Madaniy muassasalar xududiy va maxalliy bosqichlarida boshqarish masalalari.

Reja

1. Klubni boshqarish
2. Umumiy majlis xodimlarining qarori
3. Klub muassasasining faoliyati
4. Mehnat jmoasining umumiy yig`ilishi

Klubni boshqarish, o'zini-o'zi boqarish keng oshkoralik, demokratiyalash, jamoa a'zolarining ijodiy ishlab chiqarish va tashkiliy xo'jalik faoliyatida faol ishtirok etishlari asosida amalga oshiriladi. Klubning mehnat jamoasi uning shtatli xodimlari va ijodiy tuzilmalari tashkil etadi.

Mehnat jamoasining umumiy yig'ilishi klubning asosiy boshqaruv organi hisoblanadi. Klubda muddatli shartnomalar va o'rindoshlik yo'li bilan ishlayotgan fuqarolar, umumiy yig'ilishlarda maslahat berish huquqiy bilan ishtirok etadi.

Mehnat jamoasining umumiy yig'ilishi:

- Nizomni tasdiqlaydi va unga o'zgartirishla, qo'shimchalar kiritadi;
- daromadlarni taqsimlash tartibini belgilaydi;
- ijodiy ishlab chiqarish va moliya xo'jaligi faoliyati rejalarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- mehnatga haqto'lash sistemasi va usulini aniqlaydi;
- klub Kengashini, rahbirini saylaydi;
- ichki ish qoidalarini, moddiy javobgarlik tartibini qabul qiladi va o'zgartiradi;
- qayta tuzish (birlashtirish, qayta tiklash
- klub jamoasi va uning bo'linmalari faoliyatini echadi.

Umumiy majlis xodimlarining 2G`3 qismi qatnashgan taqdirdagina qaror qabul qilishga haqli, qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Mehnat jamoasining har bir a'zosi hojlagan masalani yopiq ovoz berish yo'li bilan ko'rib chiqilishini talab qilishi mumkin.

Klub muassasasining direktori (mudiri) madaniyat bo'limi tomonidan, klub jamoasining fikrini inobatga olgan holda, 5 yil muddatga tayinlanadi (o'z vazifasidan bo'shatiladi), qaror yuqori boshqaruv organi – madaniyat boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi. Klub muassasasining direktorii bir vaqtning o'zda klub Kengashining raisi hisoblanadi. Klub direktori o'z vazifasiga sustkashlik bilan qarasa, unga yuklatilgan vazifani qoniqarsiz bajarsa, yoki biron bir qonunga xilof ravishda qo'pol xatolar qilsa, madaniyat bo'limi tomonidan 5 yil muddatdan oldin ham o'z vazifasidan bo'shatilishi mumkin.

Klub muassasasining faoliyatiga kollektiv rahbarlikni amalga oshirish maqsadida Kengash tuziladi. Kengash umumiy yig'ilishda mehnat jamoasi va tuzilma bo'linmalarining faol va obro'li xodimlari, jamoat tashkilotlarining vakillaridan ochiq ovoz berish yo'li bilan umumiy majlis belgilangan tarkibda bir yil muddatga saylanadi.

Klub kengashi mehnat jamoasi kengashi bilan birgalikda xodimlarni har yili maxsus tekshiruv (attestatsiya)dan o'tkazadi, hamda tekshiruv yakuniga qarab, lavozim maoshini ko'paytirish yoki kamaytirish to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek, lavozim maoshga qo'shimcha beriladigan haqni bekor qilish yoki o'zgartirishni belgilaydi. Madaniy-ma'rifiy ishlar, xalq ijodiyoti va xo'jalik yuritishning yagi shakllarini takomillashtirish bo'yicha zarur tadbirlarni ishlab chiqadiva amalga oshiradi. Klub tuzilma bo'linmalari ish rejalarini ko'rib chiqadiva rahbarining hisobotlarini eshitadi. Xodimlarning zarur sonini belgilaydi va shtatlarni tasdiqlaydi.

Nazariy savollar

1. Klubni boshqarish deganda nimani tushunasiz?
2. Mehnat jamoasi yig'ilishi qanday o'tadi?
3. Klub direktorining saylanishi qanday bo'ladi?
4. Klub mehnat jamoalarining vazifalari qanday?
5. Mehnatni tashkil etish qaydarajada?
6. Madaniyat sohasida erishayotgan yutuqlarimiz?
7. Madaniyat xodimlarini rag'batlantirish qanday kechadi?
8. Mehnatga haq to'lash fondi tushunchasining ma'nosi nima?

Tayanch iboralar

1. Klubni boshqarish
2. Mehnat jamoasi
3. Klub direktori saylanishi
4. Klub muassasasi faoliyati
5. Madaniy muassasalarda shtatlar
6. O'z-o'zini boshqarish

7. Daromadlarni taqsimlash
8. Klub muassasalari faoliyati

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. «Ma'naviy yuksalish yo'lida». Toshkent, 1998.
3. SHorahmedov D.A. «Madaniyat va meros». Toshkent, 1973.
4. Qoraboev U. «Madaniy tadbirlar». Toshkent, 2003

9-mavzu: Madaniy muassasalar faoliyatini rejalashtirish funktsiyalari.

Reja

1. Kishilarni demokratik g'oyalar, insoniy qadriyatlarni e'zozlash kabi tuyg'ularini shakllantirish madaniy muassasalarni ahamiyati.
2. Kishilarni siyosiy ongini oshirish uchun chora-tadbirlarda madaniy muassasalar ahamiyati.
3. Kishilarni e'tiqodini mustahkamlash va dunyoqarashini takomillashtirishda madaniy muassasalarni roli.

Kishilarni demokratik g'oyalar, insoniy qadriyatlarni e'zozlash kabi tuyg'ularni shakllantirishda madaniy muassasalarni o'rnini beqiyosdir.

Hozirgi demokratik jamiyatimizda har bir kishi o'z huquqini va majburiyatlarini to'la anglashi lozim. Buning uchun madaniy muassasalar tomonidan «Siz qonunni bilasizmi?», «YOsh huquqshunos» vash u kabi tadbirlar bilan birga bir qator intellektual o'yinlar va muloqotlar olib borilmoqda.

Kishilar siyosiy ongini oshirish uchun esa jamoa va televideniya mashhur siyosatchilar, deputatlarni yig'ilish va chiqishlarini olib borilmoqda. Bunday tadbirlar kishilarni siyosiy ongini oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Madaniy muassasalar kishilar taraqqiyotining asosiy zaminidir. Madaniy muassasalar asosan kishilarning dunyoqarashini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi tadbirlar asosida insonlarni halollik, mehnatkashlik va faollikka chaqiradi.

Mehnat kishilarni taraqqiyotining asosiy zaminidir. Insonning erishgan barcha yutuqlari bu mehnat tufaylidir. Kishilar o'zi bajargan mehnatini samarasidan bahramand bo'la olsa, mehnati jamiyat manfaati uchun zarracha foyda bera olishini xil qilsa, o'z-o'zidan ravshanki, unda mehnati bilan g'ururlanish, fahrlanish tuyg'usi vujudga keladi. Buning uchun esa madaniy-ma'rifiy muassasalar tomonidan bir tadbirlar olib borilib, mehnat fahriylarini eng faol ishchi va xizmatchilarini taklif qilinib, omma orasida ularni taqdirlanadi va shu orqali boshqa ishchilargi ham namuna qilinadi. Bundan tashqari bir qator kasb bayramlarida ham shunday tadbirlar o'tkaziladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda klublar, parklar mehnat bayramlarini tashkil qiluvchi asosiy zvenolardir. Klub, parklar madniy-ma'rifiy muassasalarinng eng yirik va murakkab shakllaridan biridir. O'zbek halqida mehnat bayramlari nihoyatda ko'pdir. O'zbek mehnat bayramlari taraqqiyotining eng muhim tendentsiyalari ularni insoniylik va mehnatkashlik g'oyalarini rivojlantiruvchi kuchdir. Har bir kishi o'z mehnatidan qadrlansa va uni o'rinli tarzda mukofotlansa bundan keyingi ishlarida baraka va o'ziga xos kuch paydo bo'ladi. shuni muhim deb bilgan madaniy muassasalar ham o'ziga xos bayramlarni uyushtirishadi.

Mehnat kishilarning ongini rivojlantirishda, o'z ehtiyojlarini qondirishda eng muhim narsadir. Insoniyat erishgan barcha yutuqlar mehnat tufaylidir.

Klubning moddiy-texnikaviy bazasi va mablag'larni ya'ni uning mulklari, shuningdek, boshqa moddiy boyliklar va moliyaviy resurslar klubning asosiy fondlarini tashkil etadi.

Klubning barcha mablag'lari davlat banklaridagi joriy hisoblarda saqlanadi. Muomalada bo'lgan mablag'lar to'lig'icha klub ihtiyorida bo'ladi va u olib qo'yilmaydi. Muomalada bo'lgan mablag'lar taqchiligi klubning fondlari hisobidan to'ldirilib boriladi.

Klub axborot, uslubiyat va boshqa zarur materiallarni naqd pulsiz yoki naqd pul to'lash bilan (davlat banki belgilagan tartiblarga muvofiq) davlat, kooperativ tashkilotlari, tijorat do'konlari orqali hamda fuqarolardan o'zaro kelishilgan narxlar bo'yicha sotib oladi. Klub:

- binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, jihozlar, xom ashyo va boshqa moddiy boyliklar hamda resuslarni boshqa korxonalar va tashkilotlarga berishi, sotishi, almashtirishi, ijaraga berishi, vaqtinchalik foydalanish uchun tekinga berishi yoki qarzga berishi, shuningdek, agar bu narsalar yaroqsiz bo`lib qolgan va ma`naviy jihatdan eskirgan bo`lsa, ularni belgilangan tartibda balansdan chiqarib yuborishi;

- klub uchun ish yoki xizmat bajarayotgan boshqa tashkilotlar va korxonalarga moddiy yordam va pul mablag`lari berishi mumkin.

Klub o`zining ijodiy mahsuloti va xizmatini markazlashtirilgan tartibda belgilangan narxlar (tariflar)da, shuningdek, xaridorlar bilan o`zaro kelishgan yoki mustaqil narxlarda sotadi.

Nazariy savollar

1. Madaniy muassalarni g`oyaviy tarbiyadagi o`rni qanday?
2. Madaniy muassasalarni inson qadrini anglashdagi ahamiyati qanday?
3. Demokratik g`oyalar deganda nimani tushunasiz?
4. Madaniy muassasalarning komil inson tarbiyalashdagi mehnati nimalardan iborat?
5. Madaniy muassasalar xalol inson tayyorlashdagi o`rni haqida gapiring.
6. Madaniy muassasalar kishilarning e`tiqodini mustahkamlash yo`lida qanday ishlar olib bormoqda?
7. Madaniy muassasalar kishilarni dunyoqarashini takomillashtirishda qanday ahamiyatga ega?
8. Kishilarni demokratik g`oyalarini tarbiyalashda madaniy muassasalar olib borayotgan tadbirlar.

Tayanch iboralar

1. G`oyaviy tarbiya
2. Inson qadri
3. Demokratik g`oyalar
4. Hozirgi demokratik jamiyat
5. Huquqiy tarbiya

6. Siyosiy ongni rivojlantirish
7. Komil insonni tarbiyalash
8. Xalol inson tushunchasi
9. Madaniy muassasalar
10. Mehnat tarbiyasi
11. Kishilarni mehnatkashlikka o`rgatish
12. Halol mehnat qilishdagi o`rni
13. Mehnatkashlarni dam olishini tashkil qilish.
14. Mehnat bayramlarini uyushtirish
15. Eng faol ishchi unvoni

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. «Ma`naviy yuksalish yo`lida». Toshkent, 1998.
3. SHorahmedov D.A. «Madaniyat va meros». Toshkent, 1973.
4. Qoraboev U. «Madaniy tadbirlar». Toshkent, 2003

10-mavzu: Madaniy muassasalar faoliyati rejalar bosqichlari.

Reja

1. Madaniy muassasalarda vatanparvarlikka chorlovchi tadbirlar
2. Madaniy muassasalar tadbirlar orqali kishilarda o`z vataniga mehr-muxabbatini oshirish
3. Fuqarolarni xarbiy xizmat ruhida tarbiyalash
4. Madaniy muassasalarda nafosat tarbiyasi
5. Oliy ezgu maqsadlar zaminida turmushni, iste`dodli kishilarni tarbiyalash.

Madaniy muassasalarda vatanparvarlikka chorlovchi bir qancha tadbirlar to`kaziladi. Bunda tadbirlarda urush veteranlari, armiyada xizmat qilayotgan askar va

ofitserlar, xarbiy xizmatga chaqirilayotgan yoshlar bilan tantanali ravishda o'tkaziladigan uchrashuvlarga bag'ishlangan bo'ladi.

Vatanparvarlik mavzusiga oid bo'lgan madaniy muassasalar kechalarida xukumatimizning tinchlik siyosati, halqimizning himoyachisi bo'lgan o'zbek armiyasi, unda xizmat qilayotgan askarlari, uning xarbiy tayyorgarligi, hozirgi kundagi xarbiy texnika var amiya hayoti haqida hikoya qilinadi.

Kishilarda haqiqiy vatanparvarlik ruhini tarbiyalash uchun bunday kechalarning ahamiyati juda katta

Madaniy muassasalarda kishilarni odob-ahloq, diyonat, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, o'z vataniga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish, o'z halqiga, o'z ona yurtiga nisbatan fahr hissini uyg'otish, qisqa qilib aytganda yosh avlodga ahloqni shakllantirishga har tomonlama oshirish uchun bir qancha tadbir va kechalar o'tkazilmoqda.

Bunday tadbirlarni ko'pi huquqiy masalada bo'lib, kishilarni shuquqiy ongini oshirish, ularning ongida insonparvarlik, halollik kabi yaxshi omillarni shakllantirish mumkin.

Madaniy muassasalarda nafosat tarbiyaga bag'ishlangan kechalarda kishilarning estetik didini oshirish va madaniy dam olishlari uchun xizmat qiladi, bunda san'at va adabiyotning barcha janrlaridan to'la foydalaniladi. Asosan «illyustratsiyalash» meodi asosida o'tkaziladi. Bunday kishilarning maqsadi mehnatkashlarni badiiy madaniyat yangiliklaridan habardor qilish, san'at turlari, badiiy adabiyot janrlari va uning xususiyatlari to'g'risidagi tushunchalarni berib, ommani badiiy didini tarbiyalashdir.

Badiiy ommaviy tadbirlar kishilarning ishdan bo` shvaqtida ularga kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlanish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun yordam beradi. Bu tadbirlar asosan og`zaki jurnal, klub kechalari, badiiy kompozitsiyalar, bdiy agitbrigadalar va diskoklublar dasturlari, teatrlashtirilgan kontsert va tomoshalar, xalq an`analari, ommaviy bayramlar va sayllar kabi shakllardan tashkil topadi.

Badiiy-ommaviy tadbirlar negizida kishilarning samarali mehnati, erishgan gʻadabalari aks etadi. Bu tadbirlar asosiy vazifalaridan biri – har bir kishi oʻzining jamoalariga ulugʻvor ishning mohiyatʻini ochib berish, ularning xizmatidan umumiy davlat ishi vujudga keltirishni anglatishdir.

Badiiy ommaviy tadbirlar umumhalq masalalar bilan birgalkda mahalliy hayot jabhalaridagi yutuqlar va muammolarni aks ettiradi. Har bir kollektivlarga qilingan mehnat natijasidan kerakli xulosa chiqarish yoki navbatdagi ishni rejalashtirishga yordam beradi.

Nazariy savollar

1. Vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Madaniy muasssalarning vatanga xizmat qilish ruhidagi tadbirlari haqida tushuncha bering.
3. Xalq himoyasi sizningcha nimalardan iborat?
4. YOshlarni xarbiy xizmatga tayyorlash uchun madaniy muassasalar qanday tadbirlarni uyushtirishadi?
5. Ona yurtidan fahrlanish xissi sizningcha qanday boʻladi?
6. Xalollik deganda nimani tushunasiz?
7. Vatanga sodiqlik tushunchasini izohlang.
8. Badiiy-ommaviy tadbirlar haqida maʼlumot bering.
9. Badiiy-ommaviy tadbirlar negizida nimalar yotadi?

Tayanch iboralar

1. Vatanparvarlik
2. Xalq himoyasi
3. Vatanga xizmat qilish
4. mehnatkashlik
5. Vatanparvarlikka chorlovchi tadbirlar
6. Ona yurtidan fahrlanish xissi
7. Xalollik

8. Badiiy-ommaviy tadbirlar
9. Badiiy –ommaviy tadbirlarning afzallik tomonlari
10. Badiiy-ommaviy tadbirlarni uyushtirish

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. «Ma`naviy yuksalish yo`lida». Toshkent, 1998.
3. SHorahmedov D.A. «Madaniyat va meros». Toshkent, 1973.
4. Qoraboev U. «Madaniy tadbirlar». Toshkent, 2003

11-mavzu: Madaniy muassasalarda boshqarish usullari.

Reja

1. Tashviqot va targ`ibotni og`zaki vositalari
2. Tashviqot va targ`ibotni og`zaki vositalari turi
3. Tashviqot va targ`ibotni aholiga tushuntirish orqali etkazish

1. Tashviqot va targ`ibotni og`zaki vositalar haqida gapirar ekanmiz, eng avvalo badiiy tashviqot kollektivlar olib borayotgan ishlarga nazar tashlasak, har bir madaniymuassasalarda targ`ibot va tashviqot kollektivlari mavjud. Bunday kollektivlar ikki turga ajralib ular:

1. Badiiy tashviqot brigadalari
2. Agitteatrlardir.

Bular ichida uning keng tarqalgani badiiy tashviqot brigadasi bo`lib hisoblanadi.

2. Agitbrigadalar. Badiiy tashviqot kollektivlarining dasturlari asosan aholining ma`lum qismini hisobga olib, buning ular uchun tashkil qilinadi.

Tashviqot va targ`ibotni og`zaki vositalarining turlari bu: og`zaki jurnallar, savol-javob kechalari, muloqotlar kabilar kiradi. SHulardan eng ko`p samara beradigan og`zaki jurnal bo`lib, uning 2 turi mavjud:

A) obzorli

B) tarmoqli

Bularning asosiy farqi obzorli og`zaki jurnal – umumiy lashtirilgan mavzuga bag`ishlanib, bir nom bilan yil davomida muntazam chiqarilgan. Tarmoqlik og`zaki jurnal esa asosan fanning, turmush va madaniyatning biror bir konkret qismiga tarmog`iga bag`ishlanadi.

3. Aholiga tushuntirish orqali etkazishda asosan madaniy muassasalar xodimlari tomonidan biror bir mavzuga bag`ishlangan tadbir uyushtirilib, unda kishilarga ma`lumotlar og`zaki hollarda etkazilib beriladi. Bunda kishilarni bu muammoni hal qilishlari uchun o`ylab ko`rishlari uchun tushunarli qilib etkazilishi shart deb hisoblanadi.

Og`zaki jurnal madaniy muassasalarda tashkil qilinadigan tadbirlar ichida muhim o`rin tutadi va ulardan o`z mohiyati, o`ziga xos shakli bilan farq qiladi. uepizotik holda chiqmay balki madaniy klubning imkoniyatini, sharoitidan kelib chiqib oyda, ikki oyda yoki har kvartalda bir marta, yil davomida muntazam tashkil qilinadi.

Hozirgi vaqtda madaniy muassasalarda tashkil qilingan og`zak jurnallar obzorli va tarmoqli turlarga bo`linadi:

A) obzorli og`zaki jurnal – umumiy lashgan mavzuga bag`ishlanib, bir nom bilan yil davomida muntazam chiqariladi;

B) tarmoqli og`zaki jurnallar, asosan, umumiy bir temaga, bitta muammoga bag`ishlab o`tkaziladi. Uning har qanday sahifasi bosh mavzuni ochib berish uchun xizmat qiladi.

Klub kechalarining mazmuni, maqsadi va xususiyatlarini hisobga olib, ularni asosan uch turga: uchrashuv va savol-javob kechalari, dam olish va mavzuli kechalarga bo`linadi.

Uchrashuv kechalarida zamonamizning mashhur kishilari qatnashishi, ularning so`zlarini yaqindan jonli holda eshitish, ular bilan hamsuhbat bo`lish auditoriya diqqatini o`ziga tortadi.

Uchrashuv kechalari asosiy maqsadi ishda ishlab chiqarish ilg`ori hayoti va faoliyatini propogada qilish, ularning shug`ullangan sohasi bo`yicha ommani bilimini oshirishdir.

Klub kechalari orasida mavzuli kechalar eng ko`p tarqalgan va katta muvaffaqiyat bilan to`kaziladi. U barcha kechalarning asosiy xususiyatini va afzallik tomonlarini o`zida mujassamlashtirib olgan.

Nazariy savollar

1. Badiiy tashviqot kollektivlari haqida ma`lumot bering.
2. Tashviqot va targ`ibotni og`zaki vositalari haqida tushuncha bering.
3. Tashviqot va targ`ibotni og`zaki vositalari turlari nima?
4. Agitbrigalar ishini tushuntiring.
5. Agitspektakllar haqida ma`lumot bering.
6. Tashviqot va targ`ibotlarda badiiy tashviqot kollektivlarini o`rni qanday?
7. Savol-javob kechalari haqida ma`lumot bering.

Tayanch iboralar

1. Badiiy tashviqot kollektivlari
2. Tashviqot brigadalari
3. Agitteatr
4. Agitspektakl
5. Og`zaki jurnal
6. Tarmoqli og`zaki jurnal
7. Savol-javob kechalari
8. Muloqot

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. «O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Toshkent, 1996.
2. Karimov I.A. «Ma`naviy yuksalish yo`lida». Toshkent, 1998.
3. SHorahmedov D.A. «Madaniyat va meros». Toshkent, 1973.
4. Qoraboev U. «Madaniy tadbirlar». Toshkent, 2003

12-mavzu: Madaniy muassasalarda ish yuritishni boshqarish xujjatlar tizimi.

Reja

1. Madaniyat muassasalarida xodimlarning ma'suliyatlari
2. Madaniyat muassasalarida xodimlarni sinovdan o'tkazish

Madaniyat muassasalarida band bo'lgan rahbarlar va mutaxassislar hamda boshqa xizmatchilarning lavozim malaka tavsifnomalari turli toifadagi xodimlar o'rtasida mehnatni to'g'ri taqsimlash masalalarini hal etishga, ular ishiga nisbatan qo'yilgan talablarning umumiyligini ta'minlashga yordam beradi, ijrochilarning ma'suliyatlari, huquqlari va javobgarligini oshiradigan lavozim yo'riqnomasini ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Malaka tavsifnomalaridan tuzilma bo'linmalari to'g'risida Nizom ishlab chiqish, muassasani boshqarish tuzilmalari va ularning roli, joyini aniqlash, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, kadrlardan mutaxassisligi va kasbi bo'yicha to'g'ri foydalanishni nazorat qilib borishni amalga oshirish, xodimlarni sinovdan (tarifikatsiya) o'tkazishda foydalaniladi.

Xodimlarni sinovdan o'tkazish jarayonida kasbi bo'yicha malaka darajasi, ishchanlik qobiliyati va mehnat natijalariga baho berish bilan bir qatorda, ularning kasb bo'yicha maxsus bilimlarini, tashkiliy-ijodiy va amaliyotda qanday Samara berayotganini ham hisobga olish zarur.

Madaniyat muassasalari xodimlarining lavozimlar nomi ro'yxatiga kiritilgan malaka tavsifnomalar OSJI Mehnat va ijtimoiy masalalar bo'yicha davlat qo'mitasining 1991 yil 20 martdagi 70-sonli «Madaniyat, xalq ta'limi, ijtimoiy ta'minot va muhofizxonalar (arxiv) muassasalari xodimlarining ish haqi stavkalari va lavozim maoshlarining yangi miqdorini tasdiqlash to'g'risida»-gi qarorga muvofiq belgilangan.

Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi ayrim toifaga mansub xodimlarning lavozimlar tavsifnomasida (musavvirlar, kutubxonachilar, bibliograflar, yo'riqchilar, ekskursovodlar, lektorlar, muharrirlar va hokazo) lavozimlar nomi bir xil bo'lsa, ularning nomlari o'zgartirilmaydi va haq shunday to'lanadi.

YUqorida nomlari ko`rsatilgan xodimlarning mehnatiga haq to`lash sinov komissiyasining tavsiyasiga ko`ra, ularning malaka darajalariga qarab, muassasa rahbari tomondan amalga oshiriladi. SHuning bilan birga, uning ishdagi tashabbuskorligi va o`z vazifasiga ijodiy yondoshish, faoliyatining samaradorligi, bajarayotgan ishining sifati, shuningdek, amaliyotdagi tajribasi va kasbi bo`yicha bilimi hisobga olinadi.

«Etakchi» lavozimlar vazifasi «1» darajali mutaxassislar lavozimiga oid tavsifnomalar asosida belgilanadi.

Ularga tuzilma bo`linmalari faoliyatining bir yo`nalishi bo`yicha javobgar ijrochi, bir guruh ijrochilarga uslubiy rahbarlik etish, vazifasi yuklatiladi. «Etakchi» mutaxassislarning ish staji 1 darajali mutaxassislar uchun belgilangan ish stajdan 2-3 yil ortiq bo`lishi lozim.

Har bir lavozimning tavsifnomasi uch bo`limdan iborat:

1. «Lavozim vazifalari» bo`limida mazkur lavozimni egallab turgan xodimga to`liq yoki qisman topshirilgan vazifalar sanab o`tiladi.
